

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14017619>

## AVTOMOBIL YO'LLARINI LOYIHALASH VA QURISHDA GEODEZIK ISHLARNI TASHKIL ETISH

**Aralov Muzaffar Muxammadiyevich**

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti o'qituvchisi.

[m.aralov87@mail.ru](mailto:m.aralov87@mail.ru)

**Baxtiyorova Shodiyona Nurmajet qizi**

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti, 2-bosqich magistranti.

### ANNOTATSIYA

*Mazkur maqolada avtomobil yo'llarini joyda trassalash, trassalash ishlar tarkibiga planli kartografik ma'lumotlarni to'plash, zarur bo'lgan ma'lumotlarni kartaga, planga yoki aerofotos'yomka materiallariga tushirish bilan kameral trassalash, loyihalarini joyga ko'chirish, amalda berilgan variantlarni o'r ganib chiqish, nishablik bo'yicha joyda trassalash, trassaning xarakterli joylarida ko'ndalanglarni rejlash va nivelirlash ishlarini bajarish bo'yicha ma'lumotlar keltirib o'tilgan.*

**Kalit so'zlar.** Avtomobil yo'llari, trassalash, loyihalarini joyga ko'chirish, nivelirlash, kartografik ma'lumotlar va kameral trassalash.

## ORGANIZATION OF GEODESIC WORKS IN THE DESIGN AND CONSTRUCTION OF AUTOMOBILE ROADS

### ABSTRACT

*In this article, the on-site mapping of highways, the collection of planned cartographic data as part of the mapping works, the camera mapping with the necessary data being downloaded to a map, plan or aerial photography materials, the transfer of projects to the location, the options given in practice information on surveying, on-slope alignment, cross-planning and leveling in characteristic areas of the highway.*

**Keywords.** Highways, surveying, project relocation, leveling, cartographic data and camera surveying.

**KIRISH.** Avtomobil yo'llarini joyda trassalash ularning planlik va balandlik optimal holatlarini joyda aniqlash uchun bajariladi.

Trassalash bo'yicha ishlar tarkibiga planli kartografik ma'lumotlarni to'plash, zarur bo'lgan ma'lumotlarni kartaga, planga yoki aerofotos'yomka materialariga tushirish bilan kameral trassalash, loyihalarni joyga ko'chirish, amalda berilgan variantlarni o'rghanib chiqish, ularni taqqoslash va yakuniy variantni tanlash, berilgan yo'naliш yoki nishablik bo'yicha joyda trassalash, trassaning xarakterli joylarida ko'ndalanglarni rejlash va nivelerlash ishlarini bajarish kiradi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA:** 1-guruh: Mavjud kartalar va aero'fotosyomka materiallari bo'yicha kameral trassalash va belgilangan variantlarni joyda o'rghanish,

2-guruh: Tekis joylarda karta masshtabi 1:10000 mayda re'lef kesimi 0,5 m dan katta, murakkab re'lefli maydonlarda karta masshtabi 1:5000 dan mayda, relief kesimi 1 m dan katta bo'lganda qo'llaniladi.

Joyning o'lchami hamda obyektlar bo'yicha texnik masalalarni yechish xarakteriga qarab loyihalash bir nechta bosqichda bajariladi: birinchi bosqichda texnik ishchi loyihalari tuziladi, ikkinchi bosqichda loyiha va ishchi chizmalar tayyorlanadi. Dala ishlarini amalga oshirish texnik vazifa asosida amalga oshiriladi. Unda obyektning nomi, trassaning nomi va uzunligi, boshlang'ich balandliklari ma'lum bosh va oxirgi nuqtalar; 1km yo'lga trassaning maksimal yo'l quyidagi maksimal va minimal nishabliklari burilish burchaklari soni, agar ular tog' kanallari bo'lsa ko'tarma va qazilmalarning chekli kattaliklari, ko'ndalangliklari, egrilarning rejlash zarurligi va egrilar bo'yicha ma'lumotlar, gidrotexnika inshootlari (suv chiqargichlar) uchun s'jomokalar masshtabi, bo'ylama va ko'ndalang profillar masshtablari ko'rsatiladi.

**NATIJALAR.** Texnik vazifalarga kartalar bo'yicha topilgan piketlarga bo'lingan trassa uchun gidrotexnika inshootlari tagi s'jomokasi uchastkalarini chegaralash va joylashish ko'rsatilgan obyekt plani ilova qilinadi.

Trassalashda sel o'tkazuvchi kanallar piketlari boshlanish hisobi PK0 suv olish joyidan suv to'suvchi kanallar uchun hisob sel omboridan boshlanadi.

Joy reliefi nishabliklari xarakteriga loyihalash yechiladigan masalalarga qarab chiziqli selga qarshi inshootlar yo'naliши bo'yicha hamda nishablik bo'yicha trssalanadi. O'ng va chap tomonlar chiziqli inshootni pas ayish tomoni nishablik o'qiga nisbatan topiladi.

Chiziqli gidrotexnika inshootlarni berilgan yo'naliш bo'yicha trassalashda quyidagilar bajariladi: geodezik loyihami tuzish, joyda trassa holatini topish, trassani maxkamlash, trassani o'qlari bo'ylab teodalit yo'lini piketlashni va egrilarni rejlash bilan birga o'tkazish, texnik  $fh = \pm 50\sqrt{L}$  mm aniqlikdagi nivelerlash magistral yo'llarni o'tkazish, ko'ndalanglarni rejlash va nivelerlash, profil masshtabida 2 sm kenglikda syomka qilish, trassalash materiallarni kameral ishlovi, profillarni tuzish.

Teodolit va niveler yordamida trssalanashda joyda trassani holatini aniqlash uchun qattiq asosda chizma chiziladi, unga inshootlar o'qlari trassalari plani va balandlik asos punktlari, chiziqli inshootlar trassalari bo'yab burchaklar va masofalar miqdorlari, bo'lash usulida koordinata bo'yicha hisoblangan burilish burchaklari va planli asos punktlari tushuriladi.

Burilish burchaklari koordinatalari plandan uning deformaciyasini hisobga olib topiladi.

**MUHOKAMA.** Yo'l uzunligi 3 km dan kam bo'lganda, trassani o'lhash uchun zarur bo'lgan burchaklar va chiziq uzunliklari va chiziqlar o'lchamlari plandan bevosita transportir va masshtab chizig'i yordamida topiladi.

Joyda trassa burchaklari holatini topish 1:2000; 1:1000 aniqlikda teodolit yo'lini o'rnatish va burchaklarni texnik teodolitda bir qabulda o'lhash orqali amalgalashiriladi. Trassa bo'yab har 3km da qurilish reperi, har 5-7 km da gruntli reperi o'rnatiladi. Pikedlar har 50 yoki 100 metrda rejalanadi, texnik nivelerlashni boshlang'ich reperlarga bog'lab bajariladi.

Loyihalashda ko'ndalang nishabliklarni hisobga olish uchun, trassa bo'yab ko'ndalang nishabliklar o'zgargan joylarda hamda bo'ylama nishablikning sinish joylari – suv ayirg'ich va ko'ndanglarni rejalanadi. Ko'ndalang bo'lgan masofa texnik niveler dalnomerida, qiyalik burchaklari  $6^{\circ}$  oshganda geodezik nivelerlash orqali topiladi. Qiyalik to'lik va siqilgan uchastkalarda ya'ni ko'ndanglarni rejash iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq bo'limgan yerlarda topografik s'jomka bajariladi.

Avtomobil yo'llarini joyda trassalash natijasida quyidagilar olinadi:

- ⊕ trassa plani, koordinata va balandliklar qaydnomasi;
- ⊕ trassalar ko'ndalang va bo'ylama profillari;
- ⊕ hamma ma'lumotlari ko'rsatilgan rejash chizmasi;
- ⊕ trassa bo'yicha egri va to'g'rilalar qaydnomasi;
- ⊕ trassa bo'yab joylashtirilgan belgilari qaydnomasi va sxemasi.

Avtomobil yo'llarini joyda trassalash jarayonida loyihalash uchun katta hajmli aniq axborot olinadi. Lekin joyda trassalash ishlari injenerlik-geodezik qidiruvlarning eng mehnat talab jarayoni bo'ladi, chunki ular ko'p noqulay sharoitlarda eng ko'p jismoniy mehnatni talab qiladi.

Avtomobil yo'llarini loyihalash va qurishda topografik-geodezik ishlari bajarilib, natijada quyidagi ma'lumotlar olindi.

1-jadval

### Avtomobil yo'lining 20-45 km reperlar ro'yxati

	Услов. Координата				Гугк. Координата			
№ст.	Координата			№ст.	Координата			
	X	Y	H		X	Y	H	
ST49	52273,81	28908,43	426,72	ST68	286282,61	349207,67	414,63	
ST50	52155,59	28599,11	427,18	PK232 +45	286271,79	349372,20	414,80	
ST51	52140,40	28257,48	428,12	ST69	286259,61	349538,04	415,10	
ST52	52090,10	27912,78	428,37	PK235 +81	286191,36	349696,30	415,61	
ST72	52057,97	27575,05	428,90	ST70	286129,55	349854,34	416,04	
ST53	52036,54	27216,45	429,63	PK239 +20	286078,60	350014,62	416,08	
ST54	52000,05	26917,22	429,78	RP25T	286081,76	350149,17	416,50	
ST55	52054,72	26500,97	430,8	ST71	286030,02	350188,19	416,29	
ST56	52081,97	26223,16	431,57	RP26T	285875,00	350511,55	416,91	

Shu sababli bu jarayonni mehnat talabliligin kamaytirish maqsadida elektromagnit geodezik asboblarni qo'llashga asoslangan zamonaviy trassalash uslublari qo'llaniladi. Ulardan biri piketsiz trassalash usuli hisoblanadi. Hozirgi kunda mavjud texnika va texnologiyalar trassalash va loyihalash jarayonini to'la avtomatlashirish imkonini beradi. Qidiruvlar, loyihalash va qurish orasida katta vaqt o'tadi, piketli nuqtalar esa yo'qoladi, shu sababli piketsiz trassalashda joyda o'tkazilgan trassa bo'ylab piketlash rejalanmaydi, uning o'rni joy burilish va kesisish nuqtalari maxkamlanadi va belgilanadi.

Buning uchun svetodalnomer burchak uchida yoki stvorli nuqtada o'rnatiladi, qaytargich esa to'g'ri ko'rinish chegarasida ketma-ket plyusli nuqtalarga o'rnatiladi. Har bir plyusli nuqta uchun piketaj qiymati hisoblanadi.

Plan va profillarga yondosh nuqtalar belgilarini interpolacyiyalash orqali topilgan piketlar balandliklari yoziladi. Bu usulni texnik loyihalash jarayonida qo'llash tavsiya etiladi. Trassalashda zamonaviy elektron taxeometrlarni qo'llash orqali joy xarakterli nuqtalarni koordinatalari va balandliklarini aniqlash imkonini beradi.

## XULOSA

Gorizontal va vertikal burchaklarni o'lchashdagi kam aniqlik va ochiq joylarda to'g'ri ko'rinishdagi katta masofalarni yuqori aniqlikda o'lchash uchun joyda yuqori balandlikda taxeometr asbobi o'rnatiladi. Hamma plyusli nuqtalar holati qutbli usulda topiladi. Bunda ishchi qaytargichni xarakterli nuqtalariga o'rnatiladi. Metodni qo'llash

mehnatni yuqori samaradorligini ta'minlaydi, bundan tashqari trassa bo'ylab geometrik nivelirlash zarurati tug'iladi, qiya maydonlarni topografik s'jomkasini bajarish imkoniyati beradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Nortoshov, A. G. o'g'li, Aralov, M. M., & Aliqulov, G. N. (2023). Qishloq xo'jaligi xaritalarini yangilashda masofadan zondlash materiallaridan foydalanish. *Research and education*, 2(3), 49–56.
2. Аликулов, Г., & Аралов, М. (2022). Релефнинг рақамли моделларини учунвчиниз усниш аппаратлари ёрдамида яратиш. *Innovatsion Texnologiyalar*, 47(4), 131–134.
3. Aliqulov , G. N., & Aralov , M. M. (2023). Masofadan zondlash ma'lumotlari yordamida irrigatsiya tarmoqlari kartasini tuzish. *Research and education*, 2(10), 173–180. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/re/article/view/5165>
4. Aralov Muzaffar Muxammadiyevich. (2024). Development of Graphic Training of Future Engineering Students in Teaching the Science of Topographic Drawing. *International Journal of Formal Education*, 3(7), 13–16.
5. Aralov Muzaffar Muxammadiyevich, A. M. M. (2024). OTM talabalarining grafik tayyorgarlikligini rivojlantirish vositasi sifatida. *Farg'ona Davlat Universiteti*, (6), 138. Retrieved from <https://journal.fdu.uz/index.php/sjfsu/article/view/3151>
6. Aralov , M. M., & Halimova , F. A. qizi. (2024). Zamonaviy geodezik usullarda muhandislik obyektlarini o'lchash. *Educational Research in Universal Sciences*, 3(5), 51–56. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/6253>